

438
17
Q22

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

FALSAFA (ETIKA)

fanidan ma'ruzalar o'qish jarayonida xalq maqollari va hikmatli
so'zlardan foydalanish bo'yicha
USLUBIY QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

FALSAFA (ETIKA)

fanidan ma'ruzalar o'qish jarayonida xalq maqollari va hikmatli
so'zlardan foydalanish bo'yicha
USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent – 2013

Tuzuvchi: Primova F.A.

«Falsafa» (Etika) fanidan ma'ruzalar o'qish jarayonida xalq maqollari va hikmatli so'zlardan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma.
– Toshkent: ToshDTU, 2013.

Ushbu uslubiy qo'llanma «Falsafa» (Etika) fanidan ma'ruzalar o'qish jarayonida foydalanishga mo'ljallangan.

Talaba-yoshlarimizni axloqiy barkamol qilib tarbiyalashda ma'naviy qadriyatlarimiz katta o'rin tutadi. Bu borada xalq og'zaki ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Dono xalqimizning milliy g'oyasi va mafkurasi xalq og'zaki ijodiga bevosita tayanadi. Chunki, donolar bisotidan olingan hikmatli so'zlar, beqiyos pand-nasihatlar, ibratli da'vatlar, askiyalardagi hozirjavoblik xalqimizning nihoyatda boy madaniy-ma'naviy merosidan darak beradi. Xalq maqollarini puxta bilish va ulardan "Falsafa" (Etika) fanida o'rinli foydalanish dars samaradorligini oshirib, ma'ruzalarning jonli chiqishiga zamin yaratadi. Bu masalani yoritishda ushbu uslubiy qo'llanma o'qituvchilar uchun yaqindan yordam beradi, degan umiddamiz.

Ushbu uslubiy qo'llanma «Falsafa» (Etika) fanidan ma'ruza o'quvchi o'qituvchilar va barcha talabalar uchun mo'ljallangan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga binoan bosishga ruxsat etildi.

Mas'ul muharrir: - D.X.Islomova

Taqrizchilar:

Z.A.Bozorboyeva

JDPI "Falsafa" kaf.,f.f.n.

S.M.Asqarxadjayev

- ToshDTU "Falsafa" kafedrası
katta o'qituvchisi.

KIRISH

Mustaqillikning dastlabki yillaridan xalqimizning milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga berilayotgan alohida e'tibor tufayli sobiq tuzum davrida eskilik sarqiti degan tamg'a bilan taqiqlab qo'yilgan qadimiy urf-odatlar, xalq amaliy san'ati, xalq og'zaki ijodi kabi nomoddiy madaniy meros obyektlari tiklanib, hayotimizdan mustahkam o'rin olmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010- yil 7-oktyabrdagi "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori xalqimizning nomoddiy madaniy meroslarini tiklash, uni kelajak avlodlarga bekamu-ko'st yetkazish borasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirdi.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asaridagi "...ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dodi va qobiliyatini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilish zarur. Kishilar shuni aniq va ravshan anglab yetishlari kerakki, ma'naviy potensialni ildam rivojlantirmay turib, respublikaning chinakam mustaqilligini va ravnaq topishini ta'minlab bo'lmaydi!", deb yozadi. Bundan tashqari, Prezidentimiz O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon etishini, vatanparvarlik tuyg'ulari tashkil qilishini aniq misollarda keltirib o'tadi.

Demak, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy boyligi – xalq og'zaki ijodini o'rganish, uning sehrli kuchidan yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashda foydalanish bugungi kunning, qolaversa, mustaqillikni abadiy qaror toptirishning asosiy talabidir. Yurtboshimiz "...o'zbek xalqining va respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim va tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur²", deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosini ham ana'naviy jihatdan mukammal avlodni va yuqori malakali mutaxassisnlarni tarbiyalab voyaga yetkazish g'oyasi tashkil etadi. Chunki, ma'naviy qashshoq odam Vatan,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari, -T.: O'zbekiston, 1998. 20-bet.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari, -T.: O'zbekiston, 1998. 20-bet.

xalq, oila, ilm-fan, ta'lim-tarbiya kabi muqaddas tushunchalar qadriga yetmaydi, bu esa, o'z navbatida, yurt obodligi, xalq farovonligini oshirishda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois yurtimizda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari singari xalq og'zaki ijodi namunalari yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Nega deganda, xalqning mustaqilligi, uning ravnaqi badiiy adabiyot, xususan, og'zaki ijod bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi.

Xalq og'zaki ijodi xalqimiz dunyoqarashini, ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy-estetik g'oyalarini, ruhiyatini asrlar mobaynida saqlab kelayotgan nodir manba hisoblanadi.

Azaldan xalq og'zaki ijodida inson ruhiy olami, ichki kechinmalari, turmushda sodir bo'luvchi ko'ngilli va ko'ngilsiz hodisalar, mehnat mashaqqatlari, g'am va shodlik, nozik his-tuyg'ular badiiy aks ettiriladi. Ular xalq ma'naviyatining, mehnatkash omma irodasining bukilmazligini ifodalaydi. Xalqni ruhiy tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka, vafodorlikka chorlaydi. Xalqona durdonalarning badiiy jozibadorligi, ohangdorligi, go'zal tashbehrlarga boyligi, zullisonaynligi e'tiboringizni tortadi.

"...Madaniyat, san'at, til xalqning xalq sifatida ravnaq topishining bosh omili. Xalq ijodi esa madaniyat, san'at, tilning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar" alohida bo'lim sifatida tasdiqlandi. Unda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi lozim³ligi ta'kidlanadi.

Mazkur uslubiy qo'llanma "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab berilgan vazifalarga javob tariqasida tayyorlandi.

³ www.e-adabiyot.uz. Xalq og'zaki ijodi va qadriyatlari davlat maqomida.

FALSAFA (ETIKA) FANIDAN MA'RUZALAR O'QISH JARAYONIDA XALQ MAQOLLARI VA HIKMATLI SO'ZLARDAN FOYDALANISH

**Go'zallik dunyosi hikmat ichida,
Lazzatning asosi hikmat ichida.
Buzilgan fe'l ila aynigan hulqning,
Eng o'tkir davosi hikmat ichida.**

XXI asr – murakkab davr. Zo'raki nasihatgo'ylikni xazm qilmaslik unga xos xususiyatlardan biridir. Shu bois aql o'rgatsa hech kimga yoqmaydi-yu, lekin har bir odam o'zicha u yoki bu darajada nima yaxshiyu, nima yomon, nima odobga kiradiyu nima kirmaydi, degan savolni o'rta tashlaydi. Ayni shunda hech vaqt eskirmaydigan asrlar donoligi, buyuk yozuvchilar, tafakkur egalari va olimlar aytgan fikrlar hamda xalq maqollari ko'makdosh bo'ladiki, ularga, odamlar, xususan, talabalar so'zsiz ishonadi. Shuning uchun ham biz "Falsafa" (Etika) kursidan ma'ruzalar o'qishda xalq maqollari, hikmatli so'zlardan foydalanish samaradorligi haqida so'z yuritishga jazm etdik.

Barcha fanlar va o'quv predmetlarida bo'lgani kabi «Falsafa» (Etika) fanining ham o'z manbalari bor. Bularidan bir turkumi xalq og'zaki ijodi – maqollar va hikmatli so'zlardir. Ma'lumki, til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakli, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir.

Bundan bir necha ming yillar avval ajdodlarimiz Sirdaryo va Amudaryo bo'ylarida o'troq hayot kechirib yashagan. O'sha davrlardan buyon maqollar xalq og'zaki ijodi sifatida shakllanib, sayqallanib, tadriijiy takomil topib kelmoqda.

O'zbek xalq og'zaki ijodining azaliy mavzularidan eng asosiysi axloq-odob muammolaridir. Negaki, azaldan ajdodlarimiz axloq-odobga katta ahamiyat berib, uni insonni inson qilguvchi buyuk kuch, deb bilganlar va bu g'oya hozirgi kunda ham o'z do'zarbligini aslo yo'qotgani yo'q. Shu bois «Falsafa» (Etika) fanini o'qitishda qimmatli, benihoya jozibali, teran mazmunli, keng qamrovli tafakkur sarchashmasi bo'lgan maqollardan foydalanish o'rinlidir. Quyidagi dalillar so'zimizning yorqin isboti bo'ladi.

Yozuv, alifbe yuzaga kelmagan davrda uzoq vaqt mobaynida og'zaki adabiyot afsona, ya'ni mifologiya tarzida tarkib topgan. O'zbek

xalqi tarixida ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Maqollar ham jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda qo'llanib kelingan va kelinmoqda. Mazkur so'z san'ati turi boy hayotiy tajriba, uzoq yillik kuzatuvlar, xulosalar mahsuli bo'lib, tugal fikr, to'g'ri yo'l-yo'riq sifatida gavdalanadi.

Umuman olganda, og'zaki adabiyotda maqol, matal, hikmatli so'zlar G'oyat muhim o'rinni egallab kelmoqda. Bu jihatdan Sharqda o'zbek xalqi eng salmoqli, nufuzli mavqyega ega. Buning dalili sifatida 1926-yilda bosmadan chiqqan «O'zbek maqollari»ni, 1936-yildagi «Maqollar va hikmatli so'zlar»ni, 1988-yil "Fan" nashriyotida birinchi marta chop etilgan 2 tomlik "O'zbek xalq maqollari"ni, 1989-yili G'.G'ulom nashriyotida shunday nom ostida bosib chiqarilgan 1 tomlik qalin majmuani, 2003-yilda «Sharq» nashriyotida chop etilgan «O'zbek xalq maqollari»ni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Xalq maqollarini o'rganishda T.Mirzayev, K.Imomov, G'.Jahongirov, S.Qosimov, Z.Husainova, A.Musaqulov, M.Jo'rayev kabi o'nlab olimlar faol ishtirok etgan. So'z gavharini o'zida jamuljam etgan barcha kitoblarda ham axloq-odobga doir maqollar ustuvor o'rinni egallagan.

O'qituvchi maqollardan foydalanishdan oldin maqolning nima ekanligini, uning ma'nosi nimani anglatishini chuqur tushunib yetishi shart, shuning uchun ham biz, dastavval, maqol deb nimaga aytiladi, degan savolga javob berishga ahd qildik: **maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalaridan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi.** Maqol o'zbek tilida maqol, tojik tilida zarbulmasal, ruslarda poslovisa, arablarda naql, turklarda ata so'zi deyiladi.

Ma'lumki, hozirgi taraqqiy topgan zamon «Falsafa» (Etika) fani o'qituvchisi zimmasiga an'anaviy axloqiy va estetik kategoriyalar hamda tamoyillarning mazmunini chuqur tahlil qilish, ularda ifodalangan, tarix sinovlaridan o'tgan milliy, umuminsoniy qadriyatlarni keng qamrovli o'rganish, mazkur qadriyatlarni talabaniing axloqiy sifati, hislati, burchi, mas'uliyati etib shakllantirish, insonning mo'jizaviy hodisa ekanligini e'tirof etish, qonun ustuvorligi, demokratik yashash tarzini to'la his etish, muomala madaniyati, umuman insoniyat tamadduni erishgan yutuqlarni saqlab qolish va rivojlantirish borasida talaba qalbida axloqiy sifatlarni to'g'ri tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Bunday qiyin, ammo sharaflı vazifani uddalashda xalq maqollaridan unumli va o'z o'rnida foydalanish yaxshi samara berishi kundek ravshan.

Mazkur fan o'qituvchisiga har bir mavzu bo'yicha ma'ruzaga tayyorlanayotganda shu mavzuga doir maqol va hikmatlarni yuqorida qayd etilgan majmualardan va o'zbek olimlari, mutaffakirlari asarlaridan terib olishni, nashr etilgan hikmatlar, "Navoiy aforizm"lari kabi to'plamlardan foydalanishni tavsiya etamiz. Mazkur uslubni kursning barcha mavzularida qo'llash o'rinli deb hisoblaymiz. Bu o'rinda axloq atamasi o'rniga maqollarda odob, xulq so'zlari ishlatilganini ham eslatish lozimdir.

Yuqorida nomlari sanab o'tilgan kitoblarda odobning inson uchun foydasi, odobsizlikning zarari haqida shunday naqlar bor: inson odobi bilan go'zal, osmon oftobi bilan; odob – kishining zebuziyati; odob – oltindan qimmat; odobsiz betga chopar; suv hayotning o'zagi, odob kishining bezagi.

Kursning mavzularida ma'naviyat va bilim degan masalalar bo'lib, uni bayon qilayotganda o'qituvchi quyidagi maqollarni keltirgani ma'qul:

Olim bo'lsang olam seniki, avval bil, keyin qil; avval o'rgan, keyin o'rgat; baxt belgisi bilim; bilak bilan bitmagan ish bilim bilan bitar; bilgan o'zar, bilmagan to'zar; bilgan o'qir, bilmagan to'qir; bilim – aql chirog'i; bilim davlatdan qimmat; bilim – kuchda, kuch – bilimda; bilimli olim, bilimsiz zolim; bilimliga dunyo yorug', bilimsizga qorong'i; bilimsiz kishiga ish yo'q, ilmsiz kishiga osh yo'q; bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim; davlat (boylik) tugar, bilim tugamas; ilm istasang takror qil; ilmli uy charog'on, ilmsiz uy zimiston; ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas. Biz keltirgan maqollar asosan talabalarga daxldor bo'lib, yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Falsafa» (Etika) fanida axloqiy ma'naviyatning ko'p qirrali jihatini bayon etish ko'zda tutilgan. Bularning hammasiga daxldor bo'lgan yuzlab maqollarni keltirish vaqt doirasiga sig'masligini e'tiborga olib, insoniy kategoriyalarning ba'zilariga doir maqollar, chunonchi or-nomus haqidagi talabalarga mos 3 ta maqolnigina keltiramiz: boylik ketsa-ketsin, or-nomus ketmasin; joningni fido qilsang qil, nomusingni fido qilma; or-nomusni yoshlikdan asra.

Ma'naviyat – insonning o'z xatti-harakatiga ongli munosabati, ishiga, mehnatiga talabchanlik darajasi, go'zallik, nafosat tushunchasi hamda bu munosabat, talabchanlik va tushunchalarni o'z faoliyatiga, oilasi, jamoasi, jamiyatga singdirib yubora olishdir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, «Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban uyg'onishga chorlaydigan,

odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir». Aslida ma'naviyat inson ongiga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti, xususan, maqollari bilan singadi.

Demak, ma'naviyat tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida mujassam etadi, shu bois uning asl mazmunini talabalarga yetkazishda xalq maqollaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ko'pincha o'z g'oyasini ilgari surishda xalq og'zaki ijodidan namunalar keltiradi va o'z fikrining to'g'riligini maqollar orqali isbotlab beradi. Masalan, Yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida shunday jumalarni uchratish mumkin: «Xalq – bamisoli ulug' va sharaflı yo'ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni yo'ldan chalg'itishga urinuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo'lgan, bundan keyin ham bo'lishi mumkin. Karvon bexatar bo'lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch – ma'naviyat bor!».

Yurtboshimiz xalq maqollaridan shunchalik ustalik bilan foydalanadiki, natijada bildirayotgan fikrining to'g'riligiga hech kimda biror bir e'tirozga o'rin qolmaydi. Shunday ekan, o'qituvchi har qanday mavzuni yoritishda yurtboshimizdan o'rnak olgan holda ajdodlarimiz o'gitiga alohida e'tibor berishi talab etiladi.

«Falsafa» (Etika) fanida axloq-odobning asosiy qoidalari hisoblangan 4 ta asosiy qoida eng muhim, keng tarqalgan kategoriyalar bo'lgani uchun ulardan foydalanishni o'qituvchilar ixtiyoriga havola qilamiz. Bunda ularga "O'zbek xalq maqollari"ning (G.G'ulom, T.1989 y.) mehnatsevarlik, ishyoqmaslik haqida 20-39, vatan va vatanparvarlik xususida 5-11-betlarda keltirilgan maqollardan talabalar hayot faoliyatiga tegishliroqlarini keltirishni tavsiya etamiz.

Bu mavzu g'oyat keng kamrovli bo'lib, unga xushmuomalalik va shirinsuxanlik, halollik va rostguylik, kamtarlik, irodalilik va chidamlilik, faxr va iftixor, oliy himmatlilik va xojatbarorlik, samimiylik va do'stlikka sadoqat, sharm-hayo kabi 14 ta axloq tamoyillar kiritilgan. O'qituvchi yuqorida qayd etilgan kitobning xushmuomalalik va shirinsuxanlik xususida 79-91, halollik haqida 39-43, rostgo'ylik (to'g'ri so'z) va yolg'onchilikka doir 212-219, kamtarlikka tegishli 186-196, samimiylik va uning aksiga taalluqli 332-335, do'stlik va dushmanlik masalasida 96-106-

betlarida keltirilgan va yosh yigitu qizlar hayotiga daxldor bo'lgan maqollarni oqilona tanlab olib, o'z o'rnida foydalansa, uning har bir gapi nishonga borib tegadi.

«Falsafa» (Etika) fanining mavzularida tavsiflangan salbiy ifodalariga ig'vogarlik, g'iybatchilik, hasadgo'ylik, tuxmatchilik, maqtanchoqlik, yolg'onchilik, qalloblik, ikkiyuzlamachilik, munofiqlik, xiyonatchilik, baxillik, ziqnalik, ezmalik, laqmalik, johillik, nodonlik, xudbinlik, ayyorlik, badnafslilik, qasdlashish, kalaka-mazax qilish kabi 20 dan ziyod qusur, illat, qisqasi, axloqsizliklar kiradi.

Axloqshunoslik mavzusiga hamoxang maqollar g'oyat ko'p bo'lsa-da, hajmi cheklangan bir uslubiy qo'llanmada tabiiyki, ularni birma-bir keltirishning iloji yo'q. Shu bois talabalar hayotiga doir ayrim maqollarni keltirib, qolganlarini kecha-kunduz tinmay mehnat qilib, gullarning nektarini "yashigiga" tashib bol yaratadigan asalariga o'xshab, saralab, izlab topib, talabalarga boldek yoqtirishni o'qituvchilar vijdoniga havola qilamiz.

Ma'lumki, ayrim odamlar, xususan, ba'zi bir talabalar orasida yolg'onchilik, aldanchilik kabi nuqsonlar mavjud. Bunday qusurlar quyidagi xalq maqollarida qattiq qoralangan va rostgo'ylik ulug'langan:

1. Yolg'on aytgan kishining xatari bor ishining.
2. Yolg'on gapning chuvi chiqar.
3. Yolg'on yondirar, rostso'z qondirar.
4. Yolg'on rostdan yengilar, to'g'ri elda tanilar.
5. Yolg'on uzoqqa ketsa ham, haqiqat quvib yetar.
6. Yolg'on uyaltirar, rost suyuntirar.
7. Yolg'on – yashiq gapirma, so'ng uyalib o'tirma.
8. Yolg'onga yo yalqov ishonar, yo – anqov.
9. Yolg'onning butunidan rostning sinig'i afzal.
- 10 Yolg'onning umri qisqa.
11. Yolg'onchiga ergashma, rost gapingni yashirma.
12. Yolg'onchida or bo'lmas, to'g'ri so'zli xor bo'lmas.
13. Yolg'onchining yonidan o'tma, rostgo'yning oldidan ketma.
14. Rost gapirgan to'g'ri, yolg'onchi-o'g'ri.
15. Rost so'zni ayt, yolg'on so'zdan qayt.
16. Rostguylik – baxt, yolg'on – badbaxt.

Xalq maqollarida tuxmat va tuxmatchilik ham g'oyat qattiq qoralangan. O'qituvchi bulardan quyidagilarini keltirishini tavsiya etamiz:

1. Tuxmat tosh yorar, tosh yormasa bosh yorar.
2. Tuxmatning toshi yomon, g'iybatchining – g'ilofi.

3. Tuxmatning umri qisqa.
4. Tuxmatchi o'likni guvoh tutar.

Tuxmat shunchalik qabix va razilki, u kishi boshiga ofat va falokat yog'diradi, shu bois keksalar yaqinlarini duo qilganlarida yaratganga murojaat qilib, «Ey, Yaratgan egam, o'zing o't balosidan, suv balosidan, quruq tuxmat balosidan asragin», deydi.

Tuxmatga yaqin qusurlardan biri g'iybatdir. O'qituvchiga bu illatni qoralaydigan quyidagi maqollarni keltirishini tavsiya etamiz:

1. G'iybat yaqinni yot qilar, totuvni – arazu g'araz.
2. G'iybatchi kishining qozoni qaynamas.
3. G'iybatchi bukchayib gan yig'ar, musicha o'rmlab cho'p yig'ap.
4. G'iybatchining dili kir, g'ar-o'g'ining tili bir.

Xudbinning shiori bizniki – xaltada, sizniki o'rtada; o'zing uchun o'l yetim, kabi yot insoniy hissiyotlar bo'lib, bu illatli kishilarga quyidagicha dashnomlar beriladi: o'zi uchun uxlagan birov uchun tush ko'rmas; o'zim degan o'zaksiz ketar; o'zim degan o'radan chiqmas; xudbinning kosasi oqarmas; xudbinning nafsı o'pqon, o'zgaga otar qopqon.

"Falsafa" (Etika) fanining mavzularidan biri Vatan, oila, shaxs axloqiy masalalarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, oila jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, unga darz ketsa, jamiyat parokandalikka yuz tutadi. Bunday joydan fayzu baraka, imyonu e'tiqod, oru nomus, vijdonu diyonat, bir so'z bilan aytganda, Vatan paymol etiladi. Aksincha, qaysiki davlatda yashovchi oilalar mustahkam, inoq va ahil bo'lsa, shu yerda ezgulik, farovonlik, tinchlik, xotirjamlik, qisqasi, Vatan barq urib rivoj topadi.

Ushbu g'oyani talaba-yoshlarning ongiga singdirishda, qolaversa, mavzuni mukammal tarzda yoritib berishda xalq maqollaridan o'rinli va samarali foydalanish zarur. Biz bu borada quyidagi maqollarni ishlatishni tavsiya etamiz:

1. Ayolning sarishtasi – ro'zg'orning farishtasi.
2. Bir qizga yetti qo'shni – ota-ona.
3. Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor.
4. Inoq oilada beshik bo'shamas.
5. Kelining yaxshi bo'lsa berdi xudo, kelining yomon bo'lsa, urdi xudo.
6. Oila tinch – yurt tinch.
7. Oila – qo'sh ustunli ayvon.
8. Onalik uyning ori bor, otalik uyning – zari.
9. Ota – aql, ona – idrok.
10. Ota – bilak, ona – yurak.

11. Sarishtali uy – farishtali uy.
 12. O‘z uyingni yoritmagan chiroq, o‘zganikida mash‘al bo‘lmas.
 13. Kuyovni o‘g‘il bil, kelinni – qiz.
 14. Qizi borning baxti bor, o‘g‘li borning taxti bor.
 15. Qudaning moli bo‘lguncha, ori bo‘l.
 16. Birovning yurtida bek bo‘lguncha, o‘zingning yurtida it bo‘l.
 17. Vatangado bo‘lguncha, kafangado bo‘l.
 18. Vataning tinch – sen tinch.
 19. Dushmanga nafrati bo‘lmaganning Vatanga muhabbati bo‘lmas.
 20. Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar.
 21. Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying samon bo‘lmas.
 22. Elga qo‘shilgan moy yutar, eldan ayrilgan qon yutar.
 23. Yaxshi yaxshiga yondashtirar, yomon yo‘ldan adashtirar.
 24. Yaxshilik to‘rga elitar, yomonlik – go‘rga.
 25. El omonlik tilar, yov – yomonlik.
 26. Bir kun urush bo‘lgan uydin qirq kun baraka ko‘tarilar.
 27. Urush – yo‘qlik, tinchlik – to‘qlik.
 28. Yetmish go‘zallikning bittasi – mehnat.
 29. Xotin erka bo‘lsa, eriga serka bo‘lar.
 30. Oila – quyosh, ustunli ayvon.
 31. Onalik uyning ori bor, otalik uyning zari.
 32. Ota – aql, ona – idrok.
 33. Ota – bilak, ona – yurak.
 34. Xotin – uyning ziynati.
 35. Erdan – sadoqat, xotindan – itoat.
 36. Yaxshi ko‘rsang bolasin – izzat qilgin onasin.
 37. Yaxshi xotin yo‘q narsani bor etar, yomon xotin keng uyingni tor etar.
 38. Yaxshining ketidan qolma, yomonning qizini olma.
 39. O‘zing suyanni olguncha, o‘zingni suyanni ol.
 40. Qaynota ham ota, qaynona ham ona.
 41. Onangni kaftingda tutsang, singlingni boshingda tut.
 42. Ota-bola bir bog‘, biri gul, biri bog‘bon.
- Oilaning tayanchi, ota-ona ko‘zining oqu-qorasi, ular hayotining ko‘zgusi bo‘lmish farzand haqida ham maqollar g‘oyat ko‘p. Ulardan, hech bo‘lmasa, quyidagilarini talabalarga eslatib o‘tishni ma‘qul deb hisoblaymiz: Farzand baxti – ona taxti, farzand kamoli – ota jamoli. Farzand – belning quvvati. Farzand – jonga payvand. Farzand ko‘rdingmi

– ko‘chat ek. Farzandim – asal-qandim. Farzandim – dilbandim, sevgilim – asalqandim. Farzanding – davlating, fazilating – ziynating. Farzandni boqish qiyin, unga yoqish bundan qiyin.

Maqollar poetikasi o‘zining mukammalligi bilan so‘z san’atining oliy namunasi hisoblanadi va u kishilarni ezgulik, yorug‘lik, tinchlik, halollik, poklik, rostgo‘ylik, bir so‘z bilan aytganda, chin ma’nodagi odamiylikka yetaklashdek qudratli kuchga ega. Maqollardagi so‘zlar chuqur ma’noga egaligi, yurakdan aytilganligi, aytilishi va shakli ixchamligi, shu bilan birga chiroyliligi bilan kishini sehrlab qo‘yadi. Bunga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridagi quyidagi hikmatli so‘zlari yorqin misol bo‘ladi:

Yesa, ichsa oxir bari och to‘yar
Ko‘zi och ochligin o‘lganda qo‘yar.
Kishiga chiroydir uyat-andisha
U asrar nojo‘ya ishdan hamisha.

Yoki:

Oltovlon ola bo‘lsa,
Og‘zidagin oldirar.
To‘rtovlon tugal bo‘lsa,
Tepadagin endirar.

Maqolni ishlatishdan oldin uning o‘rni, vazifasini aniqlab olish muhimdir. Ba‘zan bir mavzudagi maqollar bir-biriga zid ma‘noni anglatadi. Masalan, «Itga it o‘lim», «It – vafo, xotin – jafo», «Xotin – uyning ziynati» maqollari bunga misol bo‘ladi.

Maqollarning asosiy qismi barcha zamonlar uchun barqaror bo‘lsa, ba‘zi birlari o‘z vazifasini o‘tab bo‘lgach, iste‘moldan chiqib ketadi. «Hayo iymondan nishona», «Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni», «Vaqtning ketdi – naqtning ketdi», «Sabrning tagi oltin», «Bilagi zo‘r birni yengar, bilimi zo‘r mingni» singari maqollar umrboqiy bo‘lsa, «Omoch seni to‘ydirgay, omboringni to‘ldirgay», «Boy otam botmonlab olur, chorakor choraklab olur», «Bechorani olib borar qoziga, qozi o‘ynar boyning chalgan soziga» kabi maqollar esa ma‘lum bir zamon ijtimoiy hayotidan kelib chiqib yaratilgan va shu zamon tugashi bilan u ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Buni ham o‘qituvchi yaxshi bilmog‘i, eskirgan maqollardan foydalanmasligi lozim.

Filologiya fanlari nomzodi O.Madayevning ta’kidlashicha, maqollar poetikasining asosini ulardagi shakl va mazmun mutanosibligi belgilaydi.

Ayni paytda poetikaning qo'shimcha omillarini ham hisobga olish kerak, ular quyidagilardan iborat:

1. Qarshilantirish, misol: Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog'.
2. Tovushdoshlik, misol: Boy boyga boqar, suv soyga oqar.
3. Metafora – ko'chim, istiora, misol: Egrining omochi yerga botmas.
4. Sifatlash, misol: Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin;
5. Jonlantirish, misol: O'tin ayirgan bolta maydonda qolar.

Xalq maqollarida qaysi mavzu, hayotning qaysi sohasi haqida fikr yuritilmasin, tanlangan muammo har tomonlama, atroflicha yoritiladi. Turli-tuman vaziyatlar haqida yaratilgan hikmatli so'zlarga guvoh bo'lamiz. Bularning hammasi o'zbek xalqining asrlar davomida naqadar dono va aqlli ijodkor farzandlarga ega ekanligini dalillaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan maqollardan shu g'oyani anglab olish mumkinki, ularda kishilar ijtimoiy va shaxsiy hayoti-faoliyatining, jumladan, talabalarning ta'lim hamda tarbiya olishlari sohalarini qamrab oladi; o'zbek xalqining asrlar davomida to'plangan bilim, ilm, xususan, axloqqa xos, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy, mafkuraviy, axloqiy, badiiy, diniy va hurfiylikka doir fikrlarini qisqa satrlarda badiiy ifoda etadi. Bulardan "Axloqshunoslik» fanini o'qitishda talabalarining hayoti va faoliyatiga bevosita daxldorlarini tanlab olib, o'z o'rnida keltirish pedagogik mahoratning badiiy ifodalaridan biridir.

Maqollar xalq og'zaki ijodining eng keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, uni ko'proq bilish va o'z o'rnida ishlatish pedagogning bilimdonligini va notiqqligini ko'rsatuvchi holatdir. Muloqotda nishonga behato urishda maqollar oldiga tushadigan o'zga biror vositaning topilishi dargumon. Shuning uchun ham maqollarni yosh avlodga turli talqin va izohlar bilan o'rgatib borish har birimizning asosiy vazifamizdir. Bu vazifaning ijrosini ta'minlash, birinchidan, yoshlarni dono, zukko, millatparvar, hozirjavob etib tarbiyalashga ko'maklashsa, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan tushuntirilayotgan mavzuning tez va soz o'zlashtirilishiga, ushbu mashg'ulotning jonli, tushunarli hamda uzoq vaqt esdan chiqmasligiga ulkan zamin yaratadi.

Maqollar asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib, xalqning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, tarixi hamda ruhiy holatini ifodalaydi. Maqollar tuzilishi jihatidan qisqa, lo'nda, puxta, mantiqli, fikran tugallangan va siqiq bo'ladi. Yillar davomida sayqallanib kelgan

maqollar xalqning donoligi, gapga chechanligini ko'rsatib turadi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Eng qizig'i, maqollar barcha xalqlar adabiyotida, so'zlashuvida keng qo'llaniladi, boshqacharoq qilib aytganda, har bir xalqning o'z maqoli bor. Maqollar qaysi xalqqa tegishli bo'lmasin, ularning mohiyati bitta: yomonlikni qoralash, yaxshilikni ulug'lash, insonlarni yaxshilikka ergashtirish, yomonga qarshi turishga undash. Shu bois o'qituvchi dars o'tishda mavzudan kelib chiqqan holda dunyo xalqlari maqollaridan ham foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz, shu sabab salomatlik hamda do'stlik haqidagi dunyo xalqlarining maqollaridan namunalar keltirishni lozim topdik:

Salomatlik haqida:

1. Sog'lom bo'lgan odamning umidi bor, umidi bor odamning hamma narsasi bor (Arab maqoli);
2. Quvnoqlik bu sog'liqning yarmidir (Chex maqoli);
3. Nafsga erk berma! Shunda sog' bo'lasan (Ispan maqoli);
4. Go'zallikning avvali sog'liqdir (Malta maqoli);
5. Eng baxtli odam sog'lom odamdir. Ammo u bu paytda o'zining baxtli ekanini sezmaydi (Fransuz maqoli);
6. Me'yor bilan yegin, me'yor bilan ich, me'yor bilan uxla. Sog'lom bo'lishning eng birinchi talabi shu (Lotin maqoli).

Do'stlik haqida:

1. Menga do'stingni ko'rsat, men senga o'zingning kimligingni ko'rsatib beraman (Rus maqoli);
2. Eng yaxshi ko'zgu do'sting ko'zidir (Irland maqoli);
3. Do'stlik arzimagan shart ustiga quriladi: bari samimiy bo'lishi kerak (Ingliz maqoli);
4. Do'stning uyiga eltadigan yo'l hech qachon uzoq tuyulmaydi (Daniya maqoli);
5. Do'stsiz hayot guvohsiz o'limga o'xshaydi (Ispan maqoli);
6. Aybsiz do'st izlagan do'stsiz qoladi (Turk maqoli).

«Falsafa» (Etika) fanidan ma'ruzalar o'qishda aforizm (hikmatli so'zlar)dan ham keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda talaba, avvalambor, maqol bilan aforizmnining farqi nimadalgini tushunib olishi lozim bo'ladi. **Aforizm – (hikmatli so'zlar) muallifi ma'lum bo'lgan, chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gapdir.** Aforizm qanchalik siqiq hajmga ega bo'lsa, uning ifodaliligi, ta'sirchanligi

shunchalik kuchli bo'ladi. Ushbu xususiyat bilan aforizmlar xalq maqollariga yaqin turadi. Aforizmlardan farqli ravishda xalq maqollarining muallifi aniq bo'lmaydi, u butun bir xalqning ma'naviy mulkidir. Buyuk so'z ustalarining ayrim hikmatli misralari, baytlari maqollarga ham aylanib ketishi ba'zan kuzatiladi. Masalan:

Ko'p demak birla bo'lmagin nodon,

Ko'p yemak birla bo'lmagin hayvon.

Hazrat Navoiy qalamiga mansub «Mahbub-ul-qulub» asaridagi ushbu bayt «Og'ziga kelganini demak nodonning ishi, oldiga qo'rganini yemak hayvonning ishi» ko'rinishida xalq maqoliga aylanib ulgurgan.

Biz olam sirlarini ochyapmiz, deya bong uramizu ammo hali inson atalmish hazrati insonning ruhiyatini to'liq bilmasligimizni tan olgimiz kelmaydi. Aslida inson ilohiy, sirli mo'jiza, uni bilish o'zligimizni anglashimizdir. Navoiy aforizmlarini o'qib bu savolga aniq javob topish mumkin, masalan:

Kimsani qo'ymas hamisha chun bu dahri dun yigit.

Ya'ni: bu tuban dunyo hech kimni yoshligicha qo'ymaydi. Falak esa hech kim bilan hisoblashmasdan o'z charxini aylantiraveradi. Mutaфakkir umrning o'tkinchiligini ta'kidlab, uni bekorga sovrmaslikka chaqiradi.

Yoshlarni boqimandachilik kayfiyatidan qaytarish bugungi kunning asosiy vazifasi bo'lib, o'qituvchi bu borada ham hazrat Navoiyga murojaat etishi maqsadga muvofiqdir. Bunda g'azal mulki sultonining quyidagi baytlarini misol qilib keltirish mumkin:

O'z vujudunga tafakkur aylagil,

Har ne istarsen, o'zungdin istagil.

Ajdodlarimizning ilm yuzidan qiyinchilik pardalarini ko'taruvchi va noaniqliklarni ilm orqali bartaraf etuvchi xalq ekanligi butun dunyo ahliga ayon. Bunga buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ongli hayoti va shijoatli xatti-harakati yorqin misol bo'ladi. Shu o'rinda bobokalonimiz haqidagi qonunshunos olim al-Valvolijiyning bir hikoyasini keltirib o'tishni lozim topdik, u shunday hikoya qiladi:

«Bir kuni Abu Rayhon Beruniyning oldiga kirdim, qarasam, u jon berayotgan, g'arg'ara bilan nafas olib, ko'kragi siqilayotgan edi. O'shanday holda turib, menga qarab:

– Sen bir kuni menga «al-jaddat al-fosida» hisobi haqida nima degan eding? – dedi.

– Shunday holatda-ya?– deb so'radim.

– Ey sen, - dedi Abu Rayhon Beruniy, - men bu dunyo bilan xayrlashayotibman,. O'sha masalasini bilmay ketganimdan ko'ra, bilib ketganim yaxshiroq emasmi? –dedi.

Men o'sha masalani unga tushuntirib berdim, u bo'lsa uni yodlab oldi va o'zi ham va'da bergan narsasini menga o'rgatdi. Shu bilan men uning oldidan chiqdim, hali uyga yetmay, yo'lda ketayotganimda Abu Rayhon Beruniyning uyidan yig'i ovozi eshitildi».

Ko'rinib turibdiki, Abu Rayhon Beruniy hazratlari o'lim bilan yuzma-yuz kelganida ham bilimga intildi, undan baxra oldi, qolaversa, al-Valvolijiyga bergan va'dasiga vafo qilib, unga qachonlardir o'rgatishga so'z bergan bilimning sirlarini ochdi.

O'qituvchi mashg'ulot jarayonida buyuk ajdodlarimizning yuqoridagi singari hayotlaridan olingan ibrat olsa arzigulik voqea-hodisalarni misol tariqasida keltirib, ularning aforizmlarini o'qib berishi har qanday yuqori saviyali pedagogik texnologiyaning cho'qqisi bo'la oladi.

Abu Rayhon Beruniyning ko'plab aforizmlari xalqchilligi, siqirligi, ma'nodorligi, tugal fikrga egaligi sababli maqol darajasiga ko'tarilgan. Masalan, «Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzal», yoki «Ehson qilgan kishining minnati ehsonini yo'qqa chiqaradi» va hokazo.

“Falsafa” (Etika) fanining har bir mavzusini yoritishda quyidagi aforizmlardan foydalanish mumkin:

1. Haqgo'ylik to'g'risida:

1.1. Haqiqat bu havodir, usiz nafas olish mumkin emas (T.S.Turgenev);

1.2. Haqgo'ylik bilan yasha – eng yaxshi nasihat shu (M.Servantes);

1.3. Haqiqat achchiq bo'lsa ham unga quloq tut (Qobus);

1.4. Faqat to'la haqiqatgina maqtovga loyiq. Chala haqiqat bir paqirga ham arzimaydi (S.Sveys);

1.5. Haqiqatning tili oddiy (L.A.Seneka).

2. Uyatchanlik to'g'risida:

2.1. Uyatdan qizarish – yaxshi libos (F.Bekon);

2.2. Kimki uyatni yo'qotsa, uni o'lgan deb hisoblash kerak (T.M.Plavt);

2.3. Odamlar oldida uyalishing yaxshi fazilat, ammo hammadan afzali o'z-o'zingdan uyalishingdir (L.N.Tolstoy).

3. Vijdon to'g'risida:

3.1. Qonunlar qonuni vijdondir (A.Lamartin);

3.2. Oliy hukm vijdon hukmidir (V.Gyugo);

3.4. Kimki vijdon azobi kasalligidan qiynalsa, halollik to'g'risida o'ylamay qo'ya qolsin (J.Rener).

4. Mardlik to'g'risida:

4.1. Mard odam odatda azob cheksa ham nolimaydi; ojiz esa jafoga ko'rmay turib noliydi (P.Buast);

4.2. Davlatingdan (ya'ni boyligingdan) ayrilsang – ko'p narsa yo'qotmaysan, nomusingdan ayrilsang – ko'p narsa yo'qotasan, mardligingdan ayrilsang – hamma narsangni yo'qotasan (I.Gyote);

4.3. Nomusdan afzalroq bo'lsa agar bosh,

Sallamas chimmatni yopingin, ey yosh!

(Xoja Samandar Termiziy).

5. Oddiylilik va kamtarlik to'g'risida:

5.1. Oddiylilik axloqiy barkamollikning bosh shartidir (L.N.Tolstoy);

5.2. Kamtar bo'l, g'ururning tevarak-atrofidagilar nafsoniyatiga tegmaydigan yagona turi shu kamtarlikdir (J.Renar);

Ammo ortiqcha oddiylilik va kamtarlik ham mukammal insonlarga xos emas, buni biz quyidagi aforizmlarda yanada yaqqolroq ko'ramiz:

5.3. Hamma narsada, hatto kamtarlikda ham me'yorni bilish kerak (A.Frans);

5.4. Ortiqcha kamtarlik pinhona takabburlikdan boshqa narsa emas (A.Shenye).

6. Adolat to'g'risida:

6.1. Kuch adolatdadir (Amir Temur);

6.2. Olam adolat bilan poydevor, zulm bilan esa xoru zordir (Muiniddin Juvayniy);

6.3. Adolat ketgan joyda kishilar hayoti qard-qimmatini ushlab turadigan hech narsa qolmaydi (I.Kant);

6.4. Adolat hamma narsani o'z o'rniga qo'yadi (M.T.Siseron);

6.5. Saxiy bo'lish juda oson, qiyini – adolatli bo'lish (V.Gyugo);

6.6. Adolat kuchli, kuch esa adolatli bo'lmog'i lozim (B.Paskal).

7. Halollik to'g'risida:

7.1. Buyuklikka eng yaqini halollikdir (V.Gyugo);

7.2. Kimdagi botin haromdan pok'emas,

Oni ruhi qobili aflok emas.

(Faxriddin Attor);

7.3. Halol odamning tamaga uchmaydigan halol nazari doimo muttahamlarni tahlikaga solgani solgan (J.Russo);

7.4. Halollik sotilsa, o'ladi (J.Sand);

7.5. Odam qanchalik aqlli va ephil bo'lmasin, halolligini yo'qotsa shu qadar badxoh, adovatchiga aylanadi (M.T.Siseron).

O'qituvchi mazkur fandagi mavzularni o'tishda talaba-yoshlarni axmoqlik va nodonlikdan uzoq yurishga hamda doimiy ravishda yuksak aqlu farosatga ega bo'lishga intilishga chorlashi shart. Bunda u quyidagilarga e'tibor qaratsa foydadan holi bo'lmaydi:

Hamma narsaning davosi bor, ammo axmoqlik va nodonlik bedavo dard. Shuning uchun ham xalqimiz:

Barcha illat uchun davo muhayyo,

Ahmoqlik illati ammo bedavo!

Yoki:

Ko'p og'ir balodir kim bo'lsa nodon

Nodon uchun yo'qdir dori-yu darmon!

deydi.

Aksincha Xoja Samandar Termiziyning ta'kidlashicha:

Kimda o'tkir aqlu farosat bordir,

G'alaba bayrog'in tikar osmonga!

Dono xalqimizda esa «Aqlli odam yashnatadi, nodon esa qaqshatadi», degan naql bor.

“Axloqshunoslik” kursida insoniylik mavzui alohida o'rin egallaydi. Bu mavzuni yoritishda ham buyuk shaxslarning aforizmlaridan foydalanish zarur, deb hisoblaymiz. Shu bois insoniylik haqida ba'zi bir aforizmlarlarni bayon etamiz:

1. Naf'ing agar xalqqa beshak durur,

Balki bu naf o'zingga ko'proq durur

Yoki:

To bani odam ila olam erur,

Olam ichida bani odam erur (Alisher Navoiy).

2. Odamlar, insonparvar bo'ling! Bu sizning birinchi burchingizdir (L.N. Tolstoy).

3. Yo'qlik qa'riga kirib ketgan xalqlar va taraqqiyotdan qolgan yagona meros – ehtimol insonparvarlikdir, bu demak – kitoblar, xalq maqollari, marmar obidalar va me'morchilik yodgorliklaridir.

Hazrat Navoiy insonparvarlikdan nishonasi bo'lmagan kishilarni itga qiyoslaydi va u bilan muloqotga kirishishni taqiqlaydi:

Safih zolim ila bo'lma xon uza hamdast,
Munosib o'lmadi it chunki hamtabaqliqqa...

Mazmuni: nodon, zolim bilan birga bir dasturxon atrofida o'tirma. Chunki kishiga it hamtovoq bo'lsa, munosib emas.

“Axloqshunoslik”da hayo asosiy insoniy me'yorlardan biri hisoblanadi. Bu masalani yoritishda quyidagi aforizmlardan foydalanish o'rinli bo'ladi:

1.1. Insonda doim turadigan husn va latofat hayo ila iffatdir.

1.2. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidir (Abu Ali ibn Sino),

2.1. Vafosizda hayo yo'q,

Hayosizda vafo yo'q.

2.2. Fosiqdan hayo tilama.

2.3. Xolu odat, iffat rostlig'

Agar bo'lsa doim ishingdur talab.

2.4. Hayo, nomus, imoni dalildur,

Hayosiz doimo xoru zalildur.

2.5. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir, hayo pardasi ila o'ralmish insonlarning iffat pardasi yirtilmas (Abdulla Avloniy).

3. Har bir azobga ham roziman, tayyorman, nomusim aziyat chekmasin zinhor (P.Karnel).

Qisqasi, shaklan ixcham, obraz va fikrga boy, xis-tuyg'u, xulosa va holatni aniq, mukammal aks ettirish, kuchli emosional va intellektual ta'sir kuchiga ega bo'lish aforizmlarga xos xususiyat bo'lib, undan mashg'ulotlarda o'rinli foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Xullas, milliy qadriyatlarimizdan biri bo'lmish maqollar va dunyoga dong'i ketgan allomalarning aforizmlari yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda, ularga chuqur bilim berishda, jamiyatni rivojlantirishda, qolaversa, komil insonni shakllantirishda, yoshlarni odob-axloqli qilib voyaga yetkazishda, oilalar mustahkamligini barqarorlashtirishda muhim tarbiyaviy vosita sanaladi. Zero, yoshlar bizning kelajamiz bo'lsa, maqollar va hikmatli so'zlar ajdodlarimizdan

qolgan bebaho xazinadir. Qachonki ularda uyg'unlik, bog'liqlik bor ekan, kelajagimiz buyuk bo'ladi. Biz, o'qituvchilar esa ana shu uyg'unlikni takomillashtiruvchi «mexanizm»larmiz. Shunday ekan, har birimiz yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda ajdodlar o'gitidan kengroq foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari, -T.: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2009. 3- iyul.
4. O'zbek maqollari – T.: Fan, 1926.
5. Maqollar va hikmatli so'zlar – T.: Fan, 1936.
6. O'zbek xalq maqollari. – T.: Fan, 1988, 1-2 tomlar.
7. O'zbek xalq maqollari. – T.: G'.G'ulom, 1989.
8. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2003.
9. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T., 2003.
10. www.e-adabiyot.uz. Xalq og'zaki ijodi va qadriyatlari davlat maqomida.

Muharrir: Sidiqova K.A.

Bosishga ruhsat etildi 23.09.2013 y. Bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog'i 1,5. Nusxasi 50 dona. Buyurtma № 443.

TDU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh,
Talabalar ko'chasi 54. tel: 246-63-84.